



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “29” aprel

BUYRUQ № 63

Toshkent sh.

**Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks
ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini
to‘ldirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, davlat statistikasi tizimidagi uslubiy qo‘llanmalarni xalqaro statistika amaliyotini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini to‘ldirish tartibi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 28- maydagi “Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini to‘ldirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 15- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 29- apreldagi
63-son buyrug'iga
ILOVA

**Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy
parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi
korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini to'ldirish**

TARTIBI

Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining Namunaviy shaklini (keyingi o'rinlarda–korxona pasporti) to'ldirish tartibi (keyingi o'rinlarda–Tartib) tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan korxona pasportini to'ldirish va taqdim etishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining to'g'ri va to'liq to'ldirilishi, ular faoliyatining asosiy iqtisodiy parametrlarini to'liq aks ettirilishini ta'minlaydi va moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartibda quyidagi ta'riflardan foydalaniladi:

davlat ishtirokidagi korxonalar – ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar;

korxona pasporti – korxonalar faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini o'z ichiga olgan, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, shuningdek, ularning tarkibiga kirmaydigan korxonalarning rasmiy saytlarida joylashtirilgan va statistika organlariga Internet tarmog'i orqali taqdim etilgan namunaviy elektron shakl.

2. “Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 1013-son qarorining 1-ilovasi)ga muvofiq, faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shakli ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan

xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o'rinlarda-korxonalar) tomonidan rasmiylashtiriladi va har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Korxonaning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan alohida bo'linmalari mavjud bo'lgan hollarda, korxona pasporti O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha alohida bo'linmalarining ma'lumotlarini hisobga olgan holda to'ldiriladi.

3. Statistika agentligi, korxonalar pasportining namunaviy shaklini to'ldirish va taqdim etishni tashkil qilish maqsadida, har yili:

1) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligidan olingan korxonalarning dastlabki ro'yxatini (keyingi o'rinlarda – Ro'yxat) o'zining rasmiy saytiga joylashtiradi;

2) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan Ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar kelib tushganda, zarur hollarda o'zgartirishlar kiritadi va 15-martdan kechiktirmay rasmiy saytga aniqlik kiritilgan ro'yxatni joylashtiradi;

3) har yili 15-martdan 5-aprelgacha korxonalarga, rasmiy saytidagi korxona pasportini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha dasturiy-texnik vositalardan foydalanish imkonini beradi;

4) korxona pasporti taqdim etilmagan yoki korxona pasportidagi ma'lumotlar statistika organlariga taqdim etilgan statistika hisoboti ma'lumotlaridan farq qilgan holda, 30-apreldan kechiktirmay tegishli choralar ko'rish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini, boshqaruv organlari tizimiga kirmaydigan korxonalar bo'yicha esa tegishli hudud hokimiyatini bu haqda xabardor qiladi.

4. Statistika agentligi, har yili 30-maygacha korxonalar pasportining asosiy parametrlari dinamikasi to'g'risidagi davriy ma'lumotlarni shakllantiradi va uni vakolatli organlariga keyingi tahliliy ishlar uchun taqdim etadi.

2-bob. Korxona pasportining identifikatsion va umumiyqtisodiy ko'rsatkichlarini to'ldirish tartibi bo'yicha tavsiyalar

5. Korxona pasportining namunaviy shaklini to'ldirishda "Korxona nomi" satrida yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq, davlat tilidagi nomi ko'rsatiladi (qisqa nomi mavjud bo'lsa, qisqa nomi ko'rsatiladi).

6. "Identifikatsiyalashtirish kodi" satrida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

KTUT – statistika organlarida avtomatlashtirilgan hisobga qo'yishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan yuridik shaxsga beriladigan yuridik shaxsning asosiy kodi;

STIR – soliq to'lovchining identifikatsiya kodi;

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq asosiy faoliyat (pasportni to'ldirish (o'zgartirish)dan oldingi yil davomida ustunlik qilgan faoliyat) turi kodi.

7. "Idoraviy mansubligi" satrida tizimiga ushbu korxona kirgan respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi organining qisqa nomi ko'rsatiladi.

8. "Tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli (AJ, MChJ, DUK)" satri O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2014-yil 3-sentyabrdagi 05-568-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi tashkiliy-huquqiy shakllar umumdavlat tasniflagichi asosida aniqlanadi.

9. "Korxona rahbari (F.I.Sh.)" satrida korxona pasportini to'ldirish (o'zgartirish) vaqtidagi korxona rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi to'liq ko'rsatiladi.

10. "Korxonaning pochta manzili" satrida shaxsan murojaat qilish (tashrif buyurish) yoki pochta korrespondensiyasini jo'natish mumkin bo'lgan, bosh ofis joylashgan to'liq manzil ko'rsatiladi.

11. "Telefon" satrida zarur hollarda korxona vakili bilan bog'lanish mumkin bo'lgan aloqa raqami (xalqaro formatdagi statsionar yoki uyali) ko'rsatiladi.

12. "Elektron manzil" satrida manfaatdor shaxslar tomonidan korxonaga xabar yuborishda foydalanish mumkin bo'lgan elektron manzil ko'rsatiladi.

13. "Veb-sayt" satrida korxona to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish mumkin bo'lgan Internet-resurs manzili ko'rsatiladi. Korxonaning o'z veb-sayti bo'lmasa korxona to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqaruv organining rasmiy sayti manzilini ko'rsatish mumkin.

14. "Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana" satrida yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomadagi sana ko'rsatiladi.

15. "Xizmat ko'rsatuvchi bank" satrida pasport to'ldirilgan (o'zgartirilgan) vaqtda korxona ochiq hisob raqamiga ega bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi bankning qisqa nomi ko'rsatiladi.

16. "Ustav fondi (ustav kapitali) miqdori" satrida ta'sis hujjatlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan oxirgi o'zgartirishlar mln.so'mda ko'rsatiladi.

17. “Ta’sischi va ularning ustav fondidagi (ustav kapitali) ulushi” satrida ta’sischi – yuridik shaxslarning to’liq yoki qisqa nomlari va/yoki umumiy ustav fondida eng katta ulushga ega jismoniy shaxslarning familiyasi va ismi sharifi ko’rsatiladi (beshtagacha ta’sischi).

18. “Yer maydoni”, “Ishlab chiqarish maydoni” va “Ma’muriy bino” satrlarida ma’lumotlar yer kadastr hujjatlariga asosan ijaraga berilgan yer maydonlari, shuningdek, korxona tomonidan bir yildan ortiq muddatga ijaraga olingan maydonlarni qo’shgan holda ko’rsatiladi.

Ko’p qavatli ma’muriy binolar ostidagi maydon to’g’risidagi ma’lumotlarni to’ldirishda barcha qavatlarining umumiy maydoni ko’rsatiladi, ishlab chiqarish obyektlari egallagan maydonga barcha sexlar, omborlar, garajlar va h.k.larning umumiy maydoni kiradi.

19. “Moliyaviy natija” satrida korxona pasportini to’ldirish (o’zgartirish)dan oldingi yildagi buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga asosan (masalan, pasport 2021-yilda to’ldirilsa, 2020-yil ma’lumotlari olinadi) foyda solig’ini to’lashdan avvalgi foyda (zarar) ko’rsatiladi.

20. “O’rtacha ishchilar soni” satrida xodimlarning o’rtacha yillik soni to’g’risidagi ma’lumotlar tadbirkorlik subyektlarining o’rtacha ishchilar sonini aniqlash nizomi talabiga asosan aniqlanadi (O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi va O’zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining qarori. 17.01.2017-y. 1-mb /3-k/q sonli qaroriga ilova (ro’yxat raqami 2858–son 17.02.2017-y.)

Bunda, xodimlar soni butun birlik sifatida – O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalariga asosan, hamda mehnat to’g’risidagi qonunchilik va boshqa normativ hujjatlarda ko’zda tutilgan boshqa hollarda kiritiladi.

21. Xodimlarni “Ma’muriy xodimlar” ko’rsatkichiga kiritish O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi va Moliya vazirligining 2003-yil 22-sentyabrdagi 58 va 116-son qarori (ro’yxat raqami 1288, 09.12.2003-y.) bilan tasdiqlangan “Davlat va xo’jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko’rsatuvchi va texnik xodimlari lavozim nomenklaturasi”ga muvofiq amalga oshiriladi.

“Ishlab chiqarishda qatnashuvchi xodimlar” ko’rsatkichi xodimlarning o’rtacha sonidan ma’muriy xodimlarning o’rtacha sonini ayirish yo’li bilan aniqlanadi.

22. “Hisoblangan o’rtacha oylik nominal ish haqi” satri xodimlarga hisoblangan ish haqi fondi to’g’risidagi ma’lumotlarni o’rtacha ish haqini

hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soniga va 12 (o'n ikki)ga bo'lish orqali (tashkilot to'liq yil ishlamagan taqdirda ham) aniqlanadi.

Ish haqi fondiga xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitob amalga oshirilgan to'lov hujjatlariga asosan, to'lov uchun hisoblangan pul mablag'lari kiritiladi. Ish haqi fondi Soliq kodeksining 371, 372, 373, 374-moddalariga asosan aniqlanadi. Bunda, ko'rsatilgan miqdorlar qonunchilikka muvofiq soliq va boshqa chegirmalarsiz keltiriladi.

23. Mazkur Tartibning 5-8, 10-12, 14, 16-17 bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar statistika organlari tomonidan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o'rinlarda KTYaDR) ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Umumiqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yillik statistika hisobotlari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Korxona pasporti ma'lumotlari bilan KTYaDR yoki yillik statistika hisobotlari ma'lumotlari o'rtasida farq mavjud bo'lsa, uning sabablari korxonaga elektron so'rov yuborish yo'li bilan aniqlanadi.

3-bob. Korxona pasportida asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi alohida ko'rsatkichlarni to'ldirish xususiyatlari

24. "Hisobot davri boshidagi ishlab chiqarish quvvati (mahsulot turlari bo'yicha)" satrida korxona pasportini to'ldirishdan (o'zgartirishdan) oldingi yilning 1-yanvar holatiga ishlab chiqarish uskunalarini to'liq ishlatilganda maksimal mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatiladi. Bunda, mavjud bo'lgan barcha quvvatlar, jumladan, ijaraga berilgan yoki mazkur korxonada ishlatiladigan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan quvvatlar ko'rsatiladi.

Mahsulot turlari bo'yicha quvvatlar to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika agentligi tomonidan ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq shakllantirilgan "Pasportlarni to'ldirish uchun taklif etilayotgan sanoat mahsulotlari nomenklaturasi"dan (keyingi o'rinlarda Nomenklatura) foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning o'lchov birliklarida to'ldiriladi.

Nomenklaturani shakllantirishda O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2015-yil 19-yanvardagi 05-612-son qarori bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichidagi mahsulot nomlari va kodlaridan foydalaniladi.

O'zlashtirish jarayonidagi quvvatlar bo'yicha mahsulotlarning aniq turini ishlab chiqarish bo'yicha loyihadagi quvvati ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda asosiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi barcha uskunalar hamda yordamchi sexlar va uchastkalarda joylashtirilgan asosiy sexlardagiga aynan o'xshash uskunalar kiritiladi. Texnologik jihatdan zarur zahiradagi uskunalar, bir-ikkita tajriba namunalari ishlab chiqaruvchi tajriba-eksperimental ishlab chiqarishlar va uchastkalardagi uskunalar, kasbiy-texnik o'qitish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan uchastkalardagi uskunalar kiritilmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda buzilganligi, ta'mirlanayotgani, modernizatsiya qilinayotgani, yetarli ish bilan ta'minlanmagani sababli vaqtincha ishlatilmayotgan uskunalar ham hisobga olinadi.

25. "Oshgan quvvat (turlari bo'yicha)" satrida yangi quvvatlarni ishga tushirish, amaldagi quvvatlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlash, shuningdek, korxona pasportini to'ldirishdan (o'zgartirish)dan oldingi yilda amalga oshirilgan tashkiliy-texnik tadbirlar hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi ko'rsatiladi.

26. "Hisobot davri oxiridagi ishlab chiqarish quvvati (mahsulot turlari bo'yicha)" satrida korxona pasportni to'ldirishdan (o'zgartirishdan) oldingi yilning 31-dekabr holatiga ishlab chiqarish uskunalari to'liq ishlatganda maksimal mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish turlari bo'yicha ko'rsatiladi.

27. "Texnologik ish vaqti (uzlukli/uzluksiz)" satrida agar, ustunlik qiluvchi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha texnologik jarayonning rejadan tashqari to'xtab qolishi mahsulot va uskunalarining buzilishiga olib kelsa, shuningdek, qayta tiklash ishlarini amalga oshirishni talab qilsa (masalan, eritish pechlari ishini) "uzluksiz" so'zi ko'rsatiladi, agar, jarayonni ishlab chiqarish uchun zararsiz holda istalgan vaqtda to'xtatish mumkin bo'lsa "uzlukli" so'zi ko'rsatiladi.

28. "O'rtacha ishlab chiqarish quvvati (mahsulot turlari bo'yicha)" satrida yil boshiga ishlab chiqarish quvvati va o'rtacha yillik oshirilgan quvvat yig'indisidan o'rtacha yillik kamaygan quvvatni ayirish yo'li bilan aniqlanuvchi qiymat ko'rsatiladi.

O'rtacha yillik oshirilgan quvvat – quvvat o'sishining qayd etilgan omillarining har biri bo'yicha quvvatning o'sishini yil oxirigacha quvvatning amal qilgan to'liq oylar soniga ko'paytirib, olingan natijani o'n ikkiga bo'lish orqali hisoblanadi.

O'rtacha yillik kamaygan quvvat – chiqib ketgan quvvatlarni chiqib ketgan vaqtdan boshlab yil oxirigacha bo'lgan to'liq oylar soniga ko'paytirib, olingan natijani o'n ikkiga bo'lish orqali hisoblanadi.

29. “Smenalilikning o'rtacha koyeffitsiyenti” satrida ma'lum bir vaqtda har bir birlik uskuna tomonidan ishlangan smenalar sonini ta'riflovchi o'rtacha ko'rsatkich ko'rsatiladi.

Mazkur koyeffitsiyent barcha smenalarda ishlangan stanok-smena (mashina-smena)lar sonini o'rnatilgan uskuna birliklari soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

30. “Asosiy ishlab chiqarishdagi mashina va asbob-uskunalarining yosh tarkibi (uskunaning ishlab chiqarilgan yilidan kelib chiqqan holda)” ko'rsatkichi yil oxiriga boshlang'ich narxlarda, ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha mashinalar va uskunalarining umumiy qiymatiga nisbatan foizlarda ko'rsatiladi.

31. “Asosiy ishlab chiqarishdagi mashina va uskunalarining eskirish darajasi (uskunaning ishlab chiqarilgan yilidan kelib chiqqan holda)” ko'rsatkichi yil oxiriga yig'ilgan eskirish qiymatining yil oxiriga ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha mashinalar va uskunalarining boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi.

32. “Ishlab chiqarish hajmi (jami va mahsulot turlari bo'yicha)” satrida korxona pasportini to'ldirishdan oldingi yilda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning to'liq hajmi amaldagi narxlarda (qayta ishlangan buyurtmachi tomonidan berilgan xom ashyo qiymatini hisobga olmasdan) ko'rsatiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

o'z xom ashyosi va materiallaridan, hamda buyurtmachining xom ashyo va materiallaridan ko'rsatilgan davr ichida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot;

shu davr ichida chetga, o'z kapital qurilishiga va o'z tashkilotining nosanoat bo'linmalariga chiqarilgan o'zida ishlab chiqarilgan yarim fabrikatlar;

ko'rsatilgan davr ichida ishlab chiqarilishi tugallanmagan, uzoq ishlab chiqarish sikliga ega mahsulotlar (buyumlar)ni tayyorlash bo'yicha ishlar;

tashqi buyurtmalar bo'yicha, o'z kapital qurilishi va o'z tashkilotining nosanoat bo'linmalari uchun bajarilgan sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar), shuningdek, o'z uskunalarini modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy turlari to'g'risidagi ma'lumotlar, Nomenklaturadagi nomlar va kodlardan foydalangan holda, unda ko'rsatilgan o'lchov birliklarida to'ldiriladi.

33. “Quvvatlardan foydalanish darajasi (mahsulot turlari bo'yicha)” ko'rsatkichi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini mazkur mahsulotni ishlab

chiqarish bo'yicha o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgandan hosil bo'lgan bo'linmaning 100% ga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

34. "Sotish hajmi" satrida buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga muvofiq sanoat mahsulotlari hamda sanoat xarakteridagi tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

35. "Sotilgan mahsulot tannarxi" satrida sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi summasi aks ettiriladi.

36. "Sifat menejment sertifikat mavjudligi (kod, raqam)" satrida sifat menejmenti tizimini joriy qilgan hamda xalqaro va davlat standartlari asosida belgilangan protseduralardan o'tgan korxonalar olingan sertifikatning kodi va raqamini ko'rsatadilar.

37. "Eksport hajmi" satrida korxona tomonidan ishlab chiqarilgan va yil davomida eksport qilingan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) shu jumladan, norezidentlarga chet el valyutasida sotilgan hamda O'zbekiston Respublikasi chegarasini kesib o'tmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ko'rsatiladi.

38. "Hisobot davri oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i" satrida tayyor mahsulot omborlarida yoki boshqa saqlash joylarida mavjud bo'lgan korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning qiymati hisobot davri oxiridagi amaldagi narxlarda (QQS va aksizsiz) ko'rsatiladi.

39. "Sarf qilingan energoresurslar" satrida korxona tomonidan yil davomida foydalanilgan yoqilg'i va energiya, jumladan, ishlab chiqarish-ekspluatatsiya, qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi, madaniy-maishiy va boshqa ehtiyojlarga qilingan xarajatlar to'g'risidagi amaldagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Xarajatlar ko'rsatkichiga shuningdek, ishlab chiqarish-texnologik yo'qotishlar (yoqilg'ini texnologik jarayonda bevosita ishlatish yoki boshqa turdagi yoqilg'i va energiyaga aylantirish bilan bog'liq) va tegishli aktlar bilan rasmiylashtirilgan iste'molchilarning yoqilg'ini saqlash va transportirovka qilishdagi yo'qotishlari va kamomadlari kiritiladi.

Xarajatlar ko'rsatkichiga, boshqa korxonalar va aholiga uzatilgan (sotilgan), tegishli hujjatlar rasmiylashtirmasdan tashqaridan olingan yoqilg'i yoki energiya hajmi, sotish uchun mo'ljallangan yoqilg'i va energiyadagi yo'qotishlar va kamomadlar kiritilmaydi.

40. "So'nggi energoaudit o'tkazilgan yil" satri korxona tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-avgustdagi 164-son qarori bilan tasdiqlangan Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarini energetika tekshiruvidan va ekspertizadan o'tkazish qoidalarida belgilangan hujjatlarga muvofiq to'ldiriladi.

41. “Rentabellik” satri buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga asosan, korxonaning moliyaviy natijasi, ya’ni foyda solig‘ini to‘lashdan avvalgi foyda (zarar)ning sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning tannarxiga nisbati sifatida hisoblanadi.

42. Asosiy (ustunlik qiladigan) faoliyat turi sanoat bo‘lmagan korxonalar ham korxona pasportini “Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risida nizom” (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1013-son qarorining 1-ilovasi)ga muvofiq, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni to‘ldiradi.

4- bob. Yakuniy qoidalar.

43. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.